

**PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TIZIMINING TIBBIYOT  
FANLARINI O‘QITISHDAGI O‘RNI**  
(Kommunal va Mehnat gigiyenasi dars mashg‘ulotlarini organayzerlar asosida)

*Kodirova M.M*

*Muxammadova G.Q.*

*“Kommunal va mehnat gigiyenasi” kafedrası  
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti. O‘zbekiston.*

**ANOTATSIYA**

Kommunal va mehnat gigiyenasi fanini o‘qitishda amaliy o‘yin uslublaridan foydalanilgan. Mavzuni o‘qitish jarayonida interfaol uslublar SWOT va Sinkveyn interfaol o‘yinlarini qo‘llash va tadbiq etish, kasbiy bilimlarni berish orqali talabalarning bilim va ko‘nikmalarni oshirish samarasi va sifatiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadigan, ularning mustaqil fikrlashi, dallillarga asoslangan tibbiyot asosida ma'lumotlarni tahlil qilishi, o‘zini tanqidiy baholash qobiliyatlarini rivojlantirish usullari taklif etildi.

**АННОТАЦИЯ**

В преподавании дисциплины коммунально-гигиеническая работа использовались практические игровые приемы. В процессе преподавания темы предложены интерактивные методики применения и применения интерактивных игр SWOT и Sinkveyn, способы развития у учащихся навыков самостоятельного мышления, анализа данных на основе доказательной медицины, умений самокритично оценивать, что положительно сказывается на плоде и качестве повышения знаний и умений посредством передачи профессиональных знаний.

**ABSTRACT**

Practical play techniques were used in the teaching of communal and labor hygiene. In the process of teaching the subject, interactive methods SWOT and Sinkweyn interactive games have been proposed, methods for the application and implementation of which, by giving professional knowledge, positively affect the effect and quality of improving knowledge and skills of students, their independent thinking, analysis of data based on medicine based on dallils, development of self-critical assessment skills.

**Mavzuning dolzarbligi:** Zamonaviy bilim va ko‘nikmaga ega, raqobatbardosh kadr tayyorlash, ularda kasbiy mahoratni rivojlantirish bilan birgalikda tibbiy, psixologik va pedagogik malakani shakllantirish.

**Kalit so‘zlar:** Organayzerlar, tibbiy pedagogika, swot, pedagogika, kasbiy mahorat, tibbiy ta‘lim talabalari, mustaqil fikrlash, kompetentlik.

**Asosiy qism:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, ularda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusning 3-yo‘nalishi bo‘yicha hozirgi kunda ham tibbiy fanlarni o‘qitishda, kompyuter dasturiy va texnik vositalari yordamida ob'ektning, hodisa yoki jarayonning holati haqida yangicha ma'lumot olib, uni maqsadga muvofiq ravishda boshqarish jarayonida ma'lumotlarni yig‘ish, qayd qilish, qayta ishlash, saqlash va uzatish vositalari hamda usullari majmuasidan ta'lim sohasida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarning roli tobora ortib borayotganligining tasdig‘idir.

Tibbiy ta'limda informatsion texnologiya asosida turli pedagogik texnologiyalarni qo‘llab mashg‘ulotlarning olib borilishi talabalar tibbiy dunyoqarashi rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Pedagogik texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra sub'ektiv xususiyatga ega bo‘lib, ya'ni, har bir pedagog ta'lim-tarbiya jarayonini o‘z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat‘iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayoni)ning samaradorligini oshirishi;
- o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- talabalar tomonidan o‘quv predmetlari bo‘yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- talabalarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;
- talabalarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Pedagogik texnologiya hozirda barcha pedagogik kasblar hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog‘liq kasblarning asosini tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiya-ta'lim-tarbiya berish bo‘yicha ko‘zda tutilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan jarayon. Bu jarayon ma'lumotlarni o‘zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish orqali o‘quvchini mustaqil o‘qishga, bilim olishga, fikrlashga o‘rgatishni kafolatlaydi.

Pedagogik texnologiyalarni umumpedagogik, xususiy (o‘quv fanlari) va kichik texnologiyalardan iborat uchta darajaga ajratiladi. Umumpedagogik texnologiya turli darajadagi tizimlarni ifodalaydi.

U ayrim hududdagi, tumandagi, ta'lim muassasasidagi yoki ta'limning ayrim pog‘onasidagi barcha ta'lim-tarbiya jarayoniga tegishli bo‘ladi. Umum pedagogik texnologiya o‘z hududi yoki ta'lim muassasasidagi ta'lim- tarbiyaviy maqsadlar,

mazmun, vositalar, boshqaruv shakli va usullari, o‘quv-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatining algoritmlarini belgilaydi.

Xususiy texnologiya ta'lim-tarbiya mazmunining ayrim yo‘nalishlarini amalga oshirish usullari va vositalari majmuasini o‘z ichiga oladi. Bunda ayrim fanlarni o‘qitish texnologiyalari, rahbarning, o‘qituvchining, tarbiyachining va talabanning ishlash texnologiyalari kiradi.

O‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilish asosidagi pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalarga takomillashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari, ta'limning jamoa usuli guruhli, kompyuterli ta'lim texnologiyalari kabilar kiradi.

Tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar. Bularga talabanning tabiiy imkoniyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to‘liq foydalanishni amalga oshirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar kiradi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. Bularga talaba shaxsining sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi.

Bulardan tashqari xususiy (o‘quv fanlari) pedagogik texnologiyalar, alternativ hamda mualliflik pedagogik texnologiyalari ham mavjud.

Bulardan tashqari hozirda pedagogik texnologiyalarning turli yo‘nalishlari bor bo‘lib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreativ, integrativ, ataptiv pedagogik texnologiyalardan iborat.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda tibbiy ta'lim sohasini isloh qilish, tibbiy ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, bo‘ljak shifokorlarni kasbiy rivojlanishning zamonaviy mexanizmlarini tatbiq etish, tibbiyotga doir zamonaviy o‘quv adabiyotlarining resurslarini xalqaro tajribalar asosida yangilashning huquqiy-me'yoriy asoslari yapatildi va moddiy-texnika bazasi rivojlantirilmoqda. “Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish”, tibbiy ta'lim tizimi sohasidagi ustivor vazifalar etib belgilandi.

Tibbiy ta'lim jarayonini tadbiq etar ekamiz tibbiy ta'limda pedagogikaning maqsadini quyidagicha belgiladik: tibbiyot yo‘nalishi talabalarida yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirish, odob-ahloq, tarbiya, hayotiy va kasbiy faoliyatlari uchun strategiyalarni rivojlantirish, iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning jadal pivojlanishi tolerantlik xususiyatlarini shakllantirish, mustaqil fikslash va shaxsiy xatti-harakatlari oqibatlarini oldindan his etish, shaxsning o‘ziga berilgan imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, to‘g‘pi maqsad qo‘yish va unga

erishish bo‘yicha pedagogik va psixologik bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Bugungi globallashuv jarayonida tibbiyot pivojlanar ekan kadrlarni tayyorlash va ularni har tomonlama shakllantirish masalalarida quyidagi vazifalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi:

- tibbiy ta'lim talabalariga kasbiy fanlarni o‘zlashtirishi hamda keyinchalik kasbiy faoliyati uchun asos bo‘ladigan shaxs va uning faoliyati, individual xususiyatlari, bilish jarayonlari, emotsional – irodaviy boshqaruv, turli qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qaratilgan tolerantlik, kommunikativ qobiliyatlarni pivojlantirish, ta'sirchan psixoprofilaktik, pedagogik va psixologik usul va vositalasini o‘rgatish;

- tibbiy ta'limda o‘qitiladigan pedagogika fanining ilmiy-amaliy, metodologik asoslari, shaxs pivojlanishining umumiy qonuniyatlari, shaxsning bilish jarayonlari, individual-psixologik xususiyatlasi, emotsional - irodaviy holatlari, muloqot va guruhlar psixologiyasi, tarbiya jarayonining mazmun va mohiyati, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini asoslash;

- tibbiy ta'lim jaryonida tibbiy ta'limdagi pedagogikaning maqsadini belgilanganligi, tibbiyot yo‘nalishi talabalarida yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish, odob-ahloq, tarbiya, hayotiy va kasbiy faoliyatlari uchun strategiyalarni rivojlantirish, iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi jarayonida tolerantlik xususiyatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlaydigan hamda shaxsiy xatti-harakatlari oqibatlarini oldindan seza oladigan, o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholaydigan, to‘g‘ri maqsad qo‘ya oladigan hamda unga erishish bo‘yicha pedagogik va psixologik bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi, tibbiyot ta'limda o‘quv - tarbiya jarayonni tashkil etishning asosiy elementi sanaladi.

- Tibbiy ta'lim jarayonida pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishi uning tarixiy hamda pedagogik izlanishlarini tashkil qilishda: mavjud xodisalarning shakllantirish konsepsiyasini amalga oshishi; fan va amaliyot g‘oyalarining mavjudligi; pedagogika va tibbiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik va ularni tarixiy hamda pedagogik jarayonda amalga oshirish g‘oyalarining mavjudligi bilan ahamiyatli.

- Mamlakatimizda pedogogik texnologiyalarni barcha yo‘nalishlarda qo‘llanilishi, davlatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa sohalari tubdan o‘zgarishga olib kelmoqda. Shu jumladan ta'lim sohasida ham pedogogik texnologiyalarni qo‘llanilishi yangi interaktiv usullarini vujudga keltirdi.

- Bugungi kunda Oliy o‘quv yurtlari ta'lim sohasida fanlarni o‘qitish, ta'lim-tarbiya, o‘zlashtirilgan bilimlar darajasini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga suyangan holda tashkil qilish, baholash, fanlar bo‘yicha yangi o‘quv dasturlarini yaratish muhim muammolardan biridir. Shu o‘rinda aytish kerakki, ta'lim tizimini ishlab chiqishda uzluksizlik, yaxlitlik va bog‘liqlikni ta'minlovchi

«bosqichli ta'lim» konsepsiyasi tavsiya etildi. Konsepsiya negizida maktabgacha ta'lim sohasida o'zlashtirilgan elementar ta'lim-tarbiyadan to madaniyatlilik darajasigacha bo'lgan jarayon qamrab olinadi. Bu jarayon tarbiyalanuvchilarga tayyorgarlik, tafakkur, fikrga egalik, ong va madaniyatlilik kabi sifatlarni yetkazishni talab qiladi.

### **Xulosa**

Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashda xorijiy usullar orqali OTMda o'qitish sifatini yaxshilash hamda samaradorlikni oshirishga erishish;

- tibbiyot oliy o'quv yurtlari faoliyatiga rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan ilg'or tajribalar, zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalari va axborot kommunikatsion texnologiyalarini samarali tatbiq etish orqali pedagoglarning bu boradagi ish tajribalarini boyitish hamda ularda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga nisbatan ijodiy, innovatsion yondashuvni qaror toptirish;

- tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarning o'quv-bilish faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan holda ta'lim sifatini oshirish va samaradorligini ta'minlash yo'lida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali, muvaffaqiyatli foydalanishga doir mahalliy tajribalarni to'plash, metodikasini ishlab chiqish hamda ularni ommalashtirish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2014. – 46 b.
2. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. I.A. Karimov tahriri ostida – Toshkent, «O'zbekiston», 2005, – 96 b.
3. “Gigiena truda” Pod redaktsiey akad. RAMN, prof. N.F. Izmerova, prof. V.F. Kirillova – M., 2010, - 583 b.
4. Iskandarov A.B., I.V.Slavinskaya “Gigienicheskie trebovaniya dlya trikotajnxq predpriyatij” San PiN R Uz № 0262-09 T., 2009, - 19 b.
5. Iskandarov A.B., I.V.Slavinskaya i dr. “Ozdorovlenie usloviy truda jeno'in, zanyatqx na trikotajnom proizvodstve” Metodicheskaya rekomendatsiya № 012-3/0120 – 2008, - 18 b.
6. Iskandarov A.B. Gigiena truda i funktsionalg'noe sostoyanie organizma jenshin zanyatqx na trikotajnxq proizvodstvax Uzbekistana.- T., 2012. - 166 b.